**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**«TASDIQLAYMAN»**
Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
_______ B.B. Sobirov
2023 yil "___" ______

**Kompyuter texnologiyasida notalashtirish dasturi**
**(tanlov)**

# O‘QUV DASTURI

**(Magistratura bo‘limi 2-kurs uchun)**

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 70111301- Musiqa ta’limi va san’at (Magistr) |

**Navoiy– 2023**

CamScanner yordamida skanerlangan

| Fan/modul kodi<br>KTND2405 | | O'quv yili<br>2023-2024 | Semestr<br>II | Kreditlar<br>5 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Tanlov fani | | Ta'lim tili<br>O'zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Kompyuter texnologiyasida notalashtirish dasturi | | 60 | 90 | 150 |
| 2. | **I. Fanning mazmuni.**<br><br>**Fanning maqsadi** - Notalashtirish va kompyuter dasturlarida ishlash bo'yicha o'ziga xos xususiyatlari va uning asoslari, zamonaviy etno musiqashunoslikning joriy etilgan asosiy yo'nalish va usullari bo'yicha tushunchalar shakllantiriladi. Shuningdek, ananaviy musiqa ijodiyotining shakl tuzilish xususiyatlari, tarixiy mahalliy uslublari kabi masalalari yuzasidan hozirgi zamon musiqiy folkloristika fanida to'plangan materiallarni qayta ishlash, tahlil qilish va tegishli xulosalarni olishdir.<br>**Fanning vazifasi** - talabalarga notalashtirish va kompyuter dasturlarida ishlash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar taqdim etiladi. Dars jarayonida kompyuter dasturlari, sibelius sahifalari orqali xalq kuylari, mumtoz asarlar, chet el hamda o'zbek kompozitorlari asarlarini notalarga olish malakalari ustida amaliy ishlar olib boriladi. Hamda jahon va mamlakatimiz musiqasi merosi namunalari bilan tanishtirish bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatadi. O'quv jarayonida o'qituvchi ma'ruzalarini hamda musiqa namunalarini tinglash, muayyan mavzular bo'yicha muloqot, darslarga tayyorgarlik ko'rish, shuningdek, musiqa namuna va shakllarini mustaqil tarzda notaga olishni o'zlashtirish talab etiladi. | | | | |



CamScanner yordamida skanerlangan

## II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. Notalashtirish dasturi Sibelius bilan tanishish.**

Notalashtirish dasturi Sibelius 4 notalashtirish dasturi bilan tanishish. Uning oldingi versiyalari, undagi imkoniyatlar, kamchiliklari haqida ma'lumot. Shuningdek, Sibelius notalashtirish dasturining keyingi Sibelius 5, Sibelius 6 va Sibelius 7 versiyalari bilan tanishish.

**2-mavzu. Sibelius 4 nota dasturida asboblar paneli.**

Sibelius 4 nota dasturida asboblar paneli, dinamik partiyalar, qo'shimcha shriftlar, liga , dinamik belgilar va boshqalar.

**3-mavzu. Sibelius dasturida menyu buyruqlari.**

Sibelius yozgan notalarni siz tanlagan cholg'ular orqali ijro qilish imkonin beradi. Yuqorigi o'ng burchakda joylashgan «Playback» sarlavhali oynaga e'tibo qaratiladi.

**4-mavzu. Sibelius nota muharririda partitura bilan ishlash.**

Raqamli klaviatura – bu komp'yuteringiz klaviaturasining o'ng tomonida joylashgan qo'shimcha klaviaturaning klavishlari tasvirlangan oynadir. (Raqamli klaviatura). Bu esa bekordan bekorga qo'yilgan emas, chunki ekran klaviaturasida sichqoncha tugmachasini bosish, raqamli klaviaturadagi shunday klavishlarning bosilishiga to'g'ri keladi. Klaviatura oynasida 5 yordamchi varaq – vkladka (bundan keyin yor.varaq.) mavjud bo'lib, ular sarlavhalari ustida sichqoncha tugmachasini bosish yoki F8 – F12 klavishlari orqali ishga tushiriladi.

**5-mavzu. Yangi hujjat yaratish.**

Sibelius 4 dasturining barcha asboblarini diqqat bilan o'rganib chiqib, dastu bilan ishlash haqida ma'lum bir tushinchaga ega bo'lganimizdan keyin partitur bilan ishlash bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga kirishishimiz mumkin. «Fayl» menyusidan buyruq chaqirib yoki Ctrl+N klavishlari qo'shilmasi orqali yangi hujjatlar yaratamiz. «New Score» («Yangi partitura») muloqat oynasi ochiladi.

**6-mavzu. Musiqiy qoidalarga oid simvollarni qo'llash.**

Eng boshidan nota matnlarini terish ikki yo'l: sichqoncha va klaviatura bilan amalga oshirilishini aytib o'tamiz. Dastlab sichqoncha bilan ishlashga harakat qilamiz. Sichqoncha bilan ishlash dastlab mo'yqalamni palitraga botirib keyin bo'yoqni xolstga surib rasm chizishga o'xshaydi. Simvollarni qo'yish qoidalari.

**7-mavzu. Nota muharririda liga va legatoli notalarni yozish.**

Kursorni yo'naltirish va sichqonchaning chap tugmachasini bosish orqali klaviatura oynasidan bizga kerakli cho'zimni ajratib olamiz, bu holatda kursor



CamScanner yordamida skanerlangan

bo'lgan nota tanlab olinadi. Nota yo'lining kerakli qismiga kursorni yo'naltirib, sichqonchaning chap tugmachasi bosilsa notada paydo bo'ladi.

**8-mavzu. Nota hujjatlarini boshqa formatlarga – grafika, audio, sibeliusning boshqa versiyalariga o'girish.**

Sibelius – ma'lum bo'lganidek, ikki tarafga: bir tomondan partitura notalarini (matn tahririga o'xshab) terish, ikkinchi tomondan esa, musiqa yaratish va uni tahrirlovchi dasturdir. Shuningdek, nota dasturida nota hujjatlarini boshqa formatlarga – grafika, audio, midi formatlarga o'girish mumkin.

**9-mavzu. Yangi hujjat yaratish, nota matnlari ustida qayta ishlash, saqlash chiqish va pechatlash usullari.**

«Manuscript Paper» sarlavhali ro'yxatda tayyor asboblar jamlangan shablon (andoza)lar joylashgandir. Agar siz partiturangizda nima yangrashi kerakligiga hozircha aniqlik hosil qila olmayotgan bo'lsangiz «Blank» shablonini tanlang va «Add Instruments...» tugmachasini bosing. Ana shundan keyin «Asboblar va nota yo'llari» muloqat oynasi ochiladi.

**10-mavzu. Nota muharririda dinamik belgilarni qo'yish.**

Forte, piano, messoforte, messopiano, diminuendo, kreshendo belgilarini qo'yish qoidalari.

**11-mavzu. Nota belgilarini qo'yish qoidalari. Nota muharririda xususiyatlar oynasi.**

Yaratilgan partiturada darhol 3 – taktdagi bir-biriga yopishmagan tovushlar, 1 – ovozdagi nuqtali chorak va 2 – ovozdagi yarimtalik notalar ko'zga tashlanadi. Nima qila olasan ishlashga to'g'ri keladi? Bu pastki yarimtalik notani pastki nota bilan tenglashtirish uchun salgina chapga, yuqorigi nuqtali chorakni esa ozroq o'ng tomonga surishimiz zarur. Biz tanishib ulgurgan xususiyatlar oynasidagi «General» yordamchi varag'iga murojaat qilinadi.

**12-mavzu. Nota yo'llari.**

Dastlab bitta nota yo'lini (agar sizga ovirgancha hammasi kerak bo'lsa – sichqonchani uch marta chiqqillating) undan keyin Shift- klavishini bir martadan chiqqilatish orqali aranjirovka qilish uchun mo'ljallangan musiqalar joylashgan nota yo'llari tanlanadi.

**13-mavzu. Menyu buyruqlari va ularning imkoniyatlari.**

Sibelius yozgan notalaringizni siz tanlagan cholg'ular orqali ijro qilish imkonini beradi. Yuqorigi o'ng burchakda joylashgan «Playback» sarlavhali oynaga etiboringizni qarating. Biz barcha qo'shimcha oynalar vazifalarini keyinroq o'rganamiz, hozircha esa ijroning yashil tugmasini shunchaki bosing. Jaz orkestri yangraydi. Ijroni ko'rib turganingizdek yonma – yon turgan qora «Stop» tugmasi yoki Esc klavishini bosish orqali to'xtatish mumkin.



CamScanner yordamida skanerlangan

**14-mavzu. «Edit / Tahrir» menyusi.**

Klaviatura oynasi pastki qismidagi 1,2,3,4 tugmachalar biz yaratayotgan ob'ektlarni tegishli ovozlarga joriy qilish imkonini beradi va bosilgan paytda tegishli rangga o'zgaradi. Ular «Edit / Tahrir» menyusidagi «Voice / Ovoz» buyruqlari bilan bir xil bo'lib, ularga Alt+1, Alt+2, Alt+3, Alt+4 klavishlari qo'shilmalari mos keladi.

**15-mavzu. «Notes / Notalar» menyusi.**

Bu yordamchi varaqda ajratib olingan nota boshchalarini yengil o'zgartirish, triolь ustidagi belgini ajratish orqali esa («Tuplet» maydonchasida) uning ko'rinish tipini, (raqamlar, cho'zimlar nisbati, to'rtburchak qavs) larni sozlash mumkin.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1.Sibelius dasturini o'rnatish va uning turlari.
2.O'zbek xalq musiqa merosi namunalarini notaga olish.
3.Sibelius dasturini o'rnatish: turli nota matnini sichqoncha orqali kiritish.
4.F.Alimov musiqasi, "Oppoq qandim" qo'shig'ini sibelius dasturida terish.
5.O'zbek xalq kuyi "Andijon polkasi" kuyini sibelius dasturida terish.
6.S.Boboyev musiqasi, "Aziz ustozlar" qo'shig'ini Sibelius dasturida terish.
7.Xalq cholg'ulariga moslashtirish. "Tasnifi buzruk" maqomi.
8.Xalq cholg'u asboblari uchun notagalarni terish.
9.Fortepiano partiyasini notaga olish.
10."Yangi tanovor" asarini notaga olish.
11.P.Mo'min sh, F.Alimov m-si, "oppoq qandim" qo'shig'ini sibelius dasturida terish.
12.O'zbek xalq kuyi "Andijon polkasi" kuyini sibelius dasturida terish.
13.To'lqin sh, S.Boboyev musiqasi Xalq cholg'ulariga moslashtirish.
14.Xalq cholg'ulariga moslashtirish. "Tasnifi buzruk" maqomi.
15."Tasnifi dugoh" maqomini notaga olish.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari hamda mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;



CamScanner yordamida skanerlangan

| | |
|---|---|
| | - maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;<br>- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;<br>- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;<br>**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**<br>Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish.<br>Fortepiano partiyasini notaga olish.<br>Asarlarni xalq cholg'ulariga moslashtirish.<br>Sibelius nota dasturida matn terish va qo'shiqlarni notaga olish usullari. |
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>*O'zbek xalqi hayotining turli tarixiy davrlaridagi eng muhim cholg'ularini, boy musiqiy-tarixiy jarayonlarni rang-barang ijrochilik an'analarini; xalq musiqasining tarkibiy qismlarini, ijrochilik xususiyatlarini og'zaki kasbiy mumtoz hamda hozirgi zamon O'zbekiston kompozitorlik ijodiyotini; o'zbek an'anaviy ashula va cholg'u janrlari, maqom turlari, nota yozuvlari, an'anaviy musiqani o'rganish uslubiyati, janrlari va uslubiy tizimini; an'anaviy musiqani o'rganishga oid zamonaviy uslublar haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***<br>*xalq og'zaki ijodi hamda kasbiy mumtoz musiqa va bastakorlik ijodiyoti asarlarini tahlil etish asosiy uslublarini egallash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***<br>*milliy musiqa an'analarining mushtarak va o'ziga xos jixatlarini aniklash; akustik, ritmik, ohang, lad, tuzilish, bezak va ijroviy tahlil qilish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>- interfaol aqliy hujum;<br>- mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar;<br>- taqdimotlar qilish. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish hamda belgilangan muddatda topshirish. |
| 6. | **VIII. Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Sibelius 4, sibelius 6 nota muharrirlarida ishlash masalalari, o'quv qo'llanma.Umurov N. Q..2016<br>2. Kompyuter musiqasi texnologiyasi, o'quv qo'llanma.Sh.G'afurova.2019<br>3. Kompyuter musiqa texnologiyasi, o'quv qo'llanma.J.Kamilov, |



CamScanner yordamida skanerlangan

| | |
|---|---|
| | Sh.Atamuradova, K.Oripov 2016.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Uchebnik po programme Sibelius 4, -B..darslik.Azatyan G..2007<br>2. Musiqa darsligi 3-sinf darslik.H.Nurmatov, N.Norxo'jayev.2016<br>3. Musiqa darsligi 4-sinf darslik.O.Ibrohimov.2017<br>4. Musiqa darsligi 5-sinf darslik.A.Mansurov D.Karimova.2020<br>5. Musiqa darsligi 6-sinf darslik.S.Begmatov.2017<br>6. Musiqa darsligi 7-sinf darslik.O.Ibroximov J.Sadirov.2017.<br>**Axborot manbalari**<br>1. www.tdpu.uz<br>2. www.pedagog.uz<br>3. www.ziyonet.uz<br>4. www.edu.uz |
| **7.** | **Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2023 yil "30" avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan.** |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:**<br>" Musiqa ta'limi " kafedrasi dotsent v.b.<br>________ Umurzoqov B.N.<br>(imzo) |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>S.Saidiy- NDPI, "Musiqa ta'limi" kafedrasi professori s.f.n.<br>F.Nurullayev-BuxDPI "Musiqa va tasviriy san'at" kafedrasi dotsenti.p.f.f.d. (PhD) |

**Kafedra mudiri** ________ Umurzoqov B.N.
(imzo)

№ 5-59/0D.



CamScanner yordamida skanerlangan

CamScanner yordamida skanerlangan